

SUN'IY INTELLEKT IQTISODIY RIVOJLANISHNI ASOSI SIFATI

Abdullayev Doston Shraliyevich

Toshkent iqtisodiyot va pedagogika instituti "Axborot texnologiyalari va aniq fanlar" kafedrasida o'qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada mamlakatimizda va jahonda sun'iy intellekt iqtisodiy rivojlanishni asosi sifatida qaralishi, bunday yondoshuvga ilmiy asoslarning mavjudligi, jahon iqtisodchi olimlarimizni turli tuman qarashlari, sun'iy intellektning kelajak iqtisodiyotiga ijobiy ta'siri va uni oqibatlarini haqida to'xtalib o'tilgan.

Kalit so'zlar. Sun'iy intellekt, texnologiya, strategiya, aqlli sensorlar, hisoblash mashinalari, Neyron tarmoqlari, model, Umumiy sun'iy intellekt.

Hozirgi iqtisodiy rivojlanish davrida Sun'iy intellekt va sun'iy ong o'rtasidagi farq turli darajadagi olimlar va axborot texnologiyalari sohasidagi mutaxassislar tomonidan qizg'in bahs-munozaralar olib borilmoqda. Avvalo, Sun'iy intellekt nima degan tushunchaga qisqacha to'xtalib o'taylik.

Sun'iy intellekt (AI)—bu huddi inson kabi muammolarni hal qilish qobiliyatiga ega bo'lgan texnologiya hisoblanadi.

Bu texnologiya, ya'ni sun'iy intellekt inson aqlini taqlid qiladi, u tasvirlarni bevosita taniy oladi, hattoki she'rlar yozadi va ichkiyoriy ma'lumotlar asosida kelajakni bashorat qila oladigan ajoyib texnologiyadir.

Mamlakatimizda ham Sun'iy intellekt sohasida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 14-oktabrdagi "Sun'iy intellekt texnologiyalarini 2030 yilga qadar rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-358-son Qarori qabul qilingan. Mazkur Qarorning asosiy maqsadi Ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarida sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy qilish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, mamlakatimizning sun'iy intellekt



texnologiyalaridan foydalanuvchi dunyoning yetakchi davlatlari qatoriga kirishiga erishish, shuningdek, «Raqamli O'zbekiston - 2030» strategiyasida belgilangan maqsad va vazifalar ijrosini ta'minlash hisoblanadi.

Zamonaviy tashkilotlar turli manbalardan – aqlli sensorlar, monitoring vositalari, tizim jurnallari va inson tomonidan yaratilgan kontentdan katta hajmdagi ma'lumotlarni to'playdi. Sun'iy intellekt texnologiyalari ma'lumotlarni tahlil qiladi va undan biznesni samarali yuritish uchun foydalanadi. Masalan, Sun'iy intellekt texnologiyasi mijozlarni qo'llab-quvvatlashda odamlarning suhbatlariga javob berishi, marketing maqsadida original tasvirlar va matnlarni yaratishi va tahlil uchun aqlli tavsiyalar berishi mumkin.

Sun'iy intellektning asosiy vazifalaridan biri - bu foydalanuvchilarning shaxsiy o'zaro ta'siri va murakkab muammolarni hal qilish uchun aqlli imkoniyatlarga ega dasturiy ta'minotni singdirishdir.

Sun'iy intellekt tarixi. Alan Turing 1950 yildagi "Hisoblash mashinalari va aql" nomli ilmiy maqolasida mashinalarning o'ylashi mumkinligini ko'rib chiqadi. Unda Alan Turing dastlab "Sun'iy intellekt" atamasini kiritadi va uni nazariy hamda falsafiy asoslarini ochib beradi. Bu Sun'iy intellekt haqidagi dastlabki xarakteristikalar bo'lsa, bugungi kunda biz bilgan sun'iy intellekt olindigi qarashlardan tubdan farq qilib, ko'plab olimlar va muhandislarning bir necha o'n yillar davomida qilgan jamoaviy sa'y-harakatlari natijasi sifatida baholanib kelmoqda.

1943 yilda Uorren Makkallox va Uolter Pitts sun'iy neyronlarning modelini taklif qilishdi, asosiy Sun'iy intellekt texnologiyasi neyron tarmoqlari uchun asos yaratganligini asosladilar. Bu xarakteristikalarni mantiqiy davomi sifatida ko'p o'tmay, 1950 yilda Alan Turing "hisoblash mashinalari va aql" kitobini nashr etib, unda u mashina intellektini baholash uchun Tyurin testi konsepsiyasini kiritadi.



1969 yildan 1979 yilgacha Marvin Minskiy neyron tarmoqlarining cheklovlarini namoyish etdi, bu ularning tadqiqotlarida vaqtincha pasayishiga olib keldi. Birinchi "Sun'iy intellekt turg'unligi" moliyalashtirishning kamayishi, shuningdek, apparat va hisoblash cheklovlari tufayli yuzaga keladi.

So'nggi bir necha yil ichida Sun'iy intellekt dasturlari va texnologiyalari soni sezilarli darajada oshdi. Kelajakda sun'iy intellekt umuman jamiyat iqtisodiy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatilishi prognoz qilinmoqda.

Barcha zamonaviy sun'iy intellekt texnologiyalari oldindan belgilangan parametrlar to'plamida ishlaydi. Masalan, tasvirni aniqlash va yaratish bo'yicha o'qitilgan Sun'iy intellekt modellari veb-saytlar yarata olmaydi.

Umumiy sun'iy intellekt (AGI)—bu insonga o'xshash aql va o'z-o'zini o'rganish qobiliyatiga ega bo'lgan dasturiy ta'minot yaratishga intiladigan nazariy sun'iy intellekt tadqiqotlari sohasi hisoblanadi. Bizning tadqiqotimizning maqsadi dasturiy ta'minot, albatta, kutilmagan innovatsion rivojlanishlarga erishish yoki umuman taqdim etilmagan yangi vazifalarni bajarishdir.

AGI—bu avtonom o'zini o'zi boshqarish, yetarli darajada o'zini anglash va yangi ko'nikmalarni o'rganish qobiliyatiga ega sun'iy intellekt tizimlarini rivojlantirish bo'yicha nazariy harakat hisoblanadi. Bunday tizimlar yaratilish vaqtida o'rganilmagan shart-sharoitlarda murakkab muammolarni hal qila oladi. Inson qobiliyatiga ega AGI nazariy tushuncha va tadqiqot maqsadi bo'lib qolmoqda.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, bu sun'iy intellektning kelajagi uchun mumkin bo'lgan variantlardan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 14-oktabrdagi "Sun'iy intellekt texnologiyalarini 2030 yilga qadar rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-358-son Qarori;



2. Bekmurotov Q.A. Sun'iy intellekt. O'quv qo'llanma -T.: "Aloqachi", 2019.- 312-b;

3. T.A. Xo'jaqulov, N.T.Malikova. Sun'iy intellekt. O'quv qo'llanma. - T.: «Иновацион ривожланиш нашриёт матбаа уйи», 2020. 216-bet;

4. H.N.Zayniddinov, T.A.Xo'jaqulov, M.P.Atadjanov. Sun'iy intellekt. O'quv qo'llanma. - T.: 2018. 260 bet.

